

Oriental Journal of Education

ANALYSIS OF TEACHING ASSIGNMENTS AIMED AT DEVELOPING SPEECH SKILLS
IN A LITERATURE TEXTBOOK FOR GRADE 7**Farangiz Umurova***First-year postgraduate student**Samarkand State Pedagogical Institute**Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: speech skills, task, literary text, thinking, critical thinking.**Received:** 04.12.25**Accepted:** 05.12.25**Published:** 06.12.25**Abstract:** This article analyzes the significance of assignments from the updated edition (Tashkent 2022) for developing students' oral proficiency. Examples from the textbook are provided, highlighting their practical significance for developing students' oral proficiency.7-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN O'QUV-TOPSHIRIQLARI TAHLILI**Farangiz Umurova***1-bosqich tayanch doktoranti**Samarqand davlat pedagogika instituti**Samarqand, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nutqiy ko'nikma, topshiriq, badiiy matn, tafakkur, tanqidiy fikrlash.**Annotatsiya:** ushbu maqolada yangilangan nashr(Toshkent-2022)dagi o'quv-topshiriqlarining o'quvchilar nutqini o'stirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Aynan darslikdan misollar keltirilib, ularning o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishda qay darajada amaliy ahamiyat kasb etishi yoritildi.АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКИХ ЗАДАНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ
РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ В УЧЕБНИКЕ ПО ЛИТЕРАТУРЕ ДЛЯ 7 КЛАССА**Фарангиз Умурова***Аспирантка первого года обучения**Самаркандского государственного педагогического института**Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: речевые навыки, задание, литературный текст, мышление, критическое мышление.

Аннотация: В данной статье анализируется значение заданий из обновленного издания (Ташкент-2022) для развития устной речи учащихся. Приводятся примеры из учебника, подчеркивающие их практическую значимость для развития устной речи учащихся.

Kirish. Adabiyot darslarida badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni matnning ichki qismiga olib kirish, ko'r ko'rona voqealar rivoji, personajlar bilan tanishtirib o'tish emas, asarni o'qib, mazmunini uqtirishda aynan darslikdagi topshiriqlarning roli kattadir. Badiiy matn bilan ishlash samarali bo'lishi uchun topshiriqlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Bahs va munozarani keltirib chiqarishi lozim – demak, savol va topshiriqlar shunday qo'yilishi kerakki, ularning yagona to'g'ri javobi yoki yechimi bo'lmasin.

2. Boshqa fanlar bo'yicha olgan bilimlarga suyanishi hamda ularni boyitishga xizmat qilishi lozim – demak, fanlararo integratsiyaga katta e'tibor beriladi.

3. Turli nutq ko'nikmalarini(o'qish, eshitish, yozish, gapirish) qamrab olishi lozim.

4. Yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim – demak, o'quvchilarga beradigan savollar va topshiriqlar faqat ma'lumotni qaytarishni talab qilmasligi, balki matnni tahlil qilib, u asosida yangi narsa yaratish, matndagi voqea-hodisalar, obrazlarga baho berishni ham qamrab olishi talab qilinadi.[1,15]

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanalgan matnni o'qish va uqish. Adabiyot darslarida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri ham o'quvchilarga matn mazmunini yaxshi anglatishdan iboratdir. O'qituvchi darslik asosida shunday texnologiya qo'llansinki, o'quvchida asarga bo'lgan qiziqish uyg'onib uning ma'no nozikliklarini his qila olsun. jadval e'tibor bersak:

Nutqiy ko'nikmalar(o'qish, eshitish, yozish, gapirish)		
Badiiy matn	Tushunish	O'quv-topshiriqlar

Yuqoridagi badiiy matn, tushunish, o'quv-topshiriqlari – nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy matnni o'qish, uni tushunish va qay darajada tushunganligini aniqlash maqsadida

badiiy asarga oid topshiriqlarni bajarish orqali darsdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Shu o‘rinda Safo Matjonovning quyidagi fikrlariga e‘tibor qaratsak: “Badiiy asarni o‘qish o‘zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o‘qish va o‘qiganini qanday tushunishdadir. Demak, kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya‘ni maqsadli o‘qishdir” [2,26]- deydi. Yangilangan nashr(Toshkent-2022)dagi o‘quv topshiriqlariga e‘tibor bersak, ko‘plari yuqoridagi talablarga deyarli mos tushadi. Masalan, Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” asaridagi topshiriq: Asar sarlavhasiga e‘tibor bering. Sizningcha, asar nima uchun “Hovlidagi daraxt” deb nomlangan? Unda nima haqida hikoya qilinadi deb o‘ylaysiz? Ushbu topshiriq ham hamma o‘quvchida har xil javob tug‘diradi. Bundan tashqari ushbu hikoya o‘quvchilardagi biologiyaga oid bilimlar, ya‘ni daraxtning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishlari ham asar mazmunini tushunishga yordam berishi mumkin.

Yana fanlararo integratsiyani Ernest Seton-Topsonning “Lobo” hikoyasida ham ko‘rish mumkin. Bo‘rilar haqida hikoya qiluvchi ushbu asardan oldin dastlab “Bolalar ensiklopediyasi” dan olingan ma’lumotlar keltirilib, o‘quvchilarning zoologiyaga oid bilimlarini mustahkamlaydi va o‘sha bilimlarga tayanib, quyidagi topshiriq beriladi: Bo‘rilarning siz o‘qigan yoki ko‘rgan asarlardagi tasvirini yuqoridagi ilmiy ma’lumot bilan solishtiring. Mana shunday mazmundagi topshiriqlar yuqoridagi talablardan boshqa fanlardan olgan bilimlariga suyanishni taqozo etadi. Yana bir misol: fanlararo aloqaga oid – adabiyot va tabiatshunoslikka oid bilimlarni umumlashtirish orqali berilgan mavzuni chuqurroq tushunadilar. Mavzuda “Ninachi va chumoli” masali berilgan va ensiklopediyadan ninachiga xos ilmiy ma’lumot ham keltirilgan bo‘lib, shunday topshiriq qo‘yilgan.

“Topshiriq. Ensiklopediyadan olingan ma’lumot bilan tanishib, ninachining qaysi xususiyatlari berilgan masaldagi obraz uchun asos bo‘lib xizmat qilgan?[3,63] Ushbu topshiriq natijasida o‘quvchilar olgan ilmiy nazariyalariga suyanib, masalni tahlil qiladilar, obrazlarga xos xususiyatlarning tag ma’nolarini anglaydilar. Badiiy tahlil asosida o‘quvchilar tafakkuri kengayadi va muammolarga turli tomondan yondashish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Xususan, Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Badiiy tahlil asoslari” kitobida ham “badiiy adabiyotning a) muloqot-kommunikativ; b) baholash-aksiologik; d) tarbiyaviy-axloqiy; e) zavqlantirish-hedonistik; f) bilish-gnesologik singari vazifalarini qayd etish mumkin deb hisoblaymiz. Kommunikativ-muloqot vazifasi adabiyotning eng muhim funksiyalaridan bo‘lib, adabiyot ezgu insoniy tuyg‘ular to‘planadigan manzil sifatida odamning olamni va o‘zini anglashga xizmat qilibgina qolmay, balki bir mamlakat odamlari yoxud turli mamlakatlarning xaq-lari orasidagi muomala-muloqot, aloqa aralashuvning eng samarali vositasi, butun bashariyatning o‘ziga xos tili ham hisoblanadi” [4,21] deb aytib o‘tgan. Ushbu fikrlardan ham anglashiladiki, badiiy adabiyotning muhim vazifalaridan biri muloqot-kommunikativ bo‘lib, u olamni anglashga, kishi tasavvur olamini kengaytirishga xizmat

qiladigan vositadir. Tasavvur olami boy bo'lgan shaxsda so'z zaxirasi ham yetarlicha bo'lib, muloqot jarayonida fikrni ifodalash uchun so'z qidirib qiynalmaydi, fikrni ravon ifoda eta oladi.

Darslikda berilgan Nabi Jaloliddinning "Ota" hikoyasidan oldin, hikoya davomida va hikoya tugagach asar matni ustida ishlanadigan topshiriqlar o'rin olgan bo'lib, ular o'quvchini o'ylashga majbur qildiradigan, asar mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradigan savollardan iboratdir. Masalan,

Topshiriq. Asar o'qishga kirishishdan oldin, otalar obrazi ishtirok etgan qanday asarlarni o'qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda otalar qanday tasvirlangan? Ushbu topshiriq ham o'quvchining oldin olgan bilimlarini mustahkamlash va asar mutolasi oldidan muhit yaratishga, o'quvchilarni fikrlashga undaydigan savol-topshiriqdir. Asar davomida ham o'quvchilarni nimani o'qiyotganliklarini anglatish uchun, asarga churroq olib kirish uchun savollar berilgan: Nega chol o'g'liga faqat tanbeh berish bilan chegaralandi? Otoning farzandlar oldida janjallashish noma'qul, deyishi sabablarini qanday izohlaysiz? Mana shunday vaziyatlarda o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida munozarali muhit yarata olsa, o'quvchilar o'zida bo'lmagan fikrlarni tingdoshlaridan eshitib, yoki tengdoshlari bildirayotgan fikrga qarshi fikr aytish bilan asarga qiziqish ortadi va o'quvchilar uchun asar mazmuni tushunarli bo'lib boraveradi.

Asar yakunlangandan so'ng, asar matni ustida ishlash uchun quyidagi topshiriq berilgan: Guruhlarda ishlaymiz. "Ota" hikoyasi qahramonlari nutqiga e'tibor bering. Muallif qahramonlar nutqini adabiy tilda emas, shevada berish orqali qanday maqsadni ko'zlagan? Siz yashaydigan hudud shevasini asar qahramonlari shevasi bilan solishtiring va jadvalni to'ldiring.

Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasidagi o'xshash so'zlar	Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasidagi farq qiluvchi so'zlar

Ushbu topshiriq o'quvchilarning tilshunoslikka oid(grammatik, leksik) bilimlariga suyanishga va shevaga oid so'zlar bilan adabiy so'zlarni ajrata olish va nutqida adabiy so'zlardan foydalanishga undaydigan o'quv-topshiriqlaridandir. Bunday topshiriqlarning samarali o'tishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Darslikda loyiha deb nomlanuvchi shunday topshiriq borki, unda oilangiz yoki mahallangizdagi yoshi ulug' bobolarning biridan intervyu oling. Intervyu asosida quyidagi jadvalni to'ldiring. O'quvchilar ichida, albatta, 2 yoki 3 tasi jurnalistikaga qiziqadi, ular uchun aynan ushbu topshiriqlar qiziqarli va shunday topshiriq bilan shug'ullanish darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Yoshlarga maslahati	Bunday maslahat berishning sababi	Hayotidan misol

Ushbu intervyu orqali o'quvchilar o'zlarida bor imkoniyatlar(nutqiy)ni amalda qo'llaydilar va hayajonni yengish, tandiqiy fikrlash kabi ko'nikmalar rivojlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi axborot texnologiyalari davrida o'quvchilarni diqqatini yanada darsga tortish va qiziqish uyg'otish maqsadida yuqoridagi o'quv-topshiriqlaridek, yanada takomillashtirilgan holda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Shunday topshiriqlar erkin va ijodiy fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos tarzda og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy qurollarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot -7-sinf O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent- 2022. 15-bet
- 2.Матжон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? -Т.:1993, 26-бет
- 3.Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot -7-sinf uchun darslik, Toshkent- 2022. 63-bet
- 4.Қ. Йўлдош, М. Йўлдош. Бадий таҳлил асослари, Тошкент- 2016. 21-бет.